

# Yashil

IQTISODIYOT  
TARAQQIYOT  
va

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4



No 9

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

# **Yashil**

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 274 sahifa.*

*E'lon qilishga 2024-yil 7-sentyabrda ruxsat etildi.*

**Bosh muharrir o'rinnbosari:**

Karimov Norboy G'aniyevich

**Muharrir:**

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

### **Tahrir hay'ati:**

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lif muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUpfessori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Uteyev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururaturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururaturasi IJQKD boshlig'i

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Cham Tat Huei, ( PhD) USCI universiteti professori, Malayziya

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Ali Konak (Али Күнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Editorial board:**

**Salimov Oqil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Rae Kwon Chung**, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,  
**Osman Mesten**, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society  
**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan  
**Buzrukhanov Sarvarkhan Munavvarhanovich**, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oly Majlis of the Republic of Uzbekistan  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc**, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation  
**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich**, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute  
**Siddikova Sadokat Ghaforovna**, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, DSc, Prof., of TSUE  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, CSc, Prof., of TSUE  
**Slizovsky Dimitriy Yegorovich**, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, DSc, Prof., of TSUE  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli**, DSc, Prof., of TSUE  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan  
**Ochilov Farkhad**, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan  
**Eshtayev Alisher Abduganievich**, DSc, Prof., of TSUE  
**Shoira Azimovna Musaeva**, professor of SamDu IS Institute  
**Cham Tat Huei**, PhD, professor at USCI University, Malaysia  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction  
**Judy Smetana CSc**, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA  
**Chrissy Lewis CSc**, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA  
**Ali Konak DSc**, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey  
**Glazova Marina Viktorovna**, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, associate professor of TSUE  
**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, independent researcher of TSUE

## **Ekspertlar kengashi:**

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti  
**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, p.f.f.d., (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokururaturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## **Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishning bozor mexanizmlari va ularni joriy etishdagi muammolar .....	21
Yusupov Shoxzod Maxmatmurodovich	
Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davrlari ekonometrik modelini yaratish masalalari.....	24
Abdullayev Farxod Ozodovich	
Marketing yondashuvi asosida Sirdaryo viloyatining investitsion salohiyatini baholash usullari.....	35
Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna	
Bevosita soliqlar ma'muriyatichiligi.....	41
Idirisov Alisher Otajonovich	
Soliq nazorati va transfert narxni belgilashda soliq nazoratini tashkil etishning xorij tajribalari.....	46
Abdiev Jaxongir Ibragimovich	
Soliq siyosati va strategiyasining ilmiy-nazariy tahlili.....	53
Djumaniyazov Marks Quranbaevich	
Pestel tahlili – muvaffaqiyatlari investitsiya qarorlarini qabul qilish asosi .....	60
Shaislamova Nargiza Kabilovna	
Tijorat banklari tomonidan biznes loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari .....	67
Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li	
The significance, problems and solutions of the green economy in the New Uzbekistan economy.....	74
Sattorova Mehriniso, Ibragimova Gulchehra Tohirova	
O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni soliqqa tortishning joriy qilinishi va rivojlanish tendensiysi .....	79
Otamuradov Nuriddin Najmiddinovich	
Korporativ boshqaruvni innovasion rivojlantirishda raqamli texnolgiyalardan foydalanishning nazariy asoslari .....	87
Xalmuradov Elmurod Dilmuradovich	
Международный опыт стимулирования инновационной деятельности.....	93
Абдиуалиева Гулзада Азатовна	
How does foreign direct investment promote economic growth? .....	98
O'tkirova Bonu Azamat kizi	
Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning konseptual asoslari va ular evolyutsiyasi.....	102
Umarov Abduvaxob Tursunovich	
Technological Innovations of Electronic Payment Systems.....	107
Mirkomil Boboyorov Murodullaevich	
Ta'lim xizmatlari sohasida davlat-xususiy sherikligining rivojlanishida xorij tajribasining o'rni va ahamiyati.....	115
Imomov Xolmurod Norqul o'g'li	
O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya va xorijiy kreditlar jalb qilish samaradorligi tahlili .....	119
Maksudov Abdumalik Xodievich	
Davlat ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilishni takomillashtirish .....	124
G'ofurov Temur Baxrom o'g'li	
Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatini rivojlanish holati va uning dolzarbligi .....	129
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	



Turizmda innovatsiyalarni qo'llash imkoniyatlari.....	133
<b>Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li</b>	
Davlat budgetining soliqli daromadlari tahlili .....	139
<b>Abduraimova Nigora Radjabovna</b>	
Soliq yuki soliq tizimining qanchalik samarali ekanligini aniqlovchi muhim mezon .....	143
<b>To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich</b>	
O'zbekiston sanoat korxonalarida xom ashyo resurslaridan samarali foydalanishning hozirgi holati, muammolari va mintaqaviy xususiyatlari (qashqadaryo viloyati misolida) .....	151
<b>Ochilov Akram Odilovich, Xazratov Sarvar Ibragimovich</b>	
Cостояние туристической инфраструктуры Ташкентской области.....	156
<b>Гаппарова Майрамхон Зафар кизи</b>	
Sanoatlashuvning ekologik ta'siri va "yashil" iqtisodiyotga o'tishning asoslari .....	161
<b>Nosir Maximudov, Lola Azimova</b>	
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda sinergetik ta'sirning nazariy asoslari .....	167
<b>Maxmudova Zoxida Maqsudali qizi, Normurodov Xusan</b>	
Davlat budgeti xarajatlaridansamarali foydalanishni takomillashtirish.....	173
<b>Sherxon Tuychiyev</b>	
Savdo korxonalarida ta'minot zanjirining asosiy bosqichlari va muammolari.....	177
<b>Ergashev Jahongir Baxodirovich</b>	
Kichik biznes subyektlarining innovatsion loyihalarni moliyalashtirish yo'llari.....	180
<b>Ergashev Firuz Baxodirovich, Ishturdiev Hasan Abdigapparovich</b>	
Budget tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash xarajatlari hisobining asoslari.....	184
<b>Azizova Zilola Lochin qizi</b>	
Xorijiy mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari tomonidan mahalliylashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarishning o'ziga xos jihatlari .....	191
<b>Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich</b>	
Suv ekologiyasining asosiy yo'nalishi va uning fandagi o'rni.....	200
<b>Musayeva Muqaddas Abdurashid qizi</b>	
Анализ прибыли агропромышленности .....	204
<b>Гафурова Азизахон Фатиховна</b>	
Systematic analysis of briquette mass pressing equipment approach.....	209
<b>Kobilov Khasan Khalilovich, Sharipova Nazira Rakhmatilloyevna</b>	
An Econometric Assessment of the Effects of Fintech on Economic Growth in Developed Countries .....	213
<b>Anvarkhonov Abdulatifkhon Jamshidkhon ugli</b>	
Raqamli iqtisodiyot rivojida korporativ boshqaruva faoliyatining roli .....	216
<b>Muxitdinov Ulug'bek Diyarovich</b>	
Zначение промышленной сети в развитии деятельности предприятий малого бизнеса.....	221
<b>Кодиров Жавлонбек Нематуллаевич</b>	
Tadbirkorlik kambag'allikni qisqartirishning asosiy yo'nalishi.....	225
<b>Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich</b>	
Kichik biznes subyektlarida mahsulot ishlab chiqarishda innovatsiyani joriy etish masalalari.....	230
<b>Mirzayev Kobil Nosirjonovich</b>	
Investisiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini rivojlantirish mexanizmlari.....	236
<b>Ismailov Dilshod Anvarjonovich</b>	
Innovasion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida sifat menejmentini joriy etishning nazariy-uslubiy masalalari.....	242
<b>Zarina Ashurova</b>	



Social media marketing strategies for small businesses.....	247
Mannonov Shahzod Istam ugli	
Xalqaro shartnomalar qoidalarini qo'llashning xalqaro va milliy uslubiy tamoyillarining o'zaro ta'siri .....	250
Rajapov Shuxrat Zaripbaevich	
Neft-gaz, yoqilg'i energetika sanoati sohasidagi yirik soliq to'lovchilarda soliq nazoratini samarali tashkil etish va takomillashtirish masalalari .....	258
Abdullaev Shuxrat Sultanbaevich	
Cуть и значимость инновационных технологий в региональном управлении .....	266
Муминов Фазлиддин Хусниддин угли	

# MUNDARIJA SODERJANIYE CONTENTS



# BEVOSITA SOLIQLAR MA'MURIYATCHILIGI

ORCID: 0009-0005-1768-372X

**Idrisov Alisher Otajonovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bevosita (to'g'ri) soliqlar ma'muriyatchiligini tashkil etish, jumladan, ushu soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lash tartib-qoidalari, shuningdek, ushu yo'nalishdagi ma'muriyatchilikni takomillashtirishning ayrim masalalari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** bevosita (to'g'ri) soliqlar, foyda solig'i, daromad solig'i, resurs soliqlari, soliq solish obyekti va bazasi, soliq stavkalari, soliq imtiyozlari.

**Abstract:** This article examines the organization of direct (correct) tax administration, including the procedure for calculating and paying these taxes, as well as some issues of improving administration in this area.

**Key words:** Direct (correct) taxes, income tax, profit tax, resource taxes, tax base and object, tax rates, tax incentives.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается организация прямого (правильного) налогового администрирования, в том числе порядок исчисления и уплаты этих налогов, а также некоторые вопросы совершенствования администрирования в этом направлении.

**Ключевые слова:** Прямые (корректные) налоги, налог на прибыль, налог на прибыль, ресурсные налоги, налоговая база и объект, налоговые ставки, налоговые льготы.

## KIRISH

Har bir mamlakatning iqtisodiy tayanchi haqida so'z ketar ekan, ko'z o'ngimizda soliqlar haqidagi tasavvurlar paydo bo'la boshlaydi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Chunki dunyodagi har bir davlat borki, uning moliyaviy vositasini, tayanchini soliqlar bilan bog'lamaslikning imkonii bo'lmaydi. Shu sababli soliq tizimi davlatlar iqtisodiyotining ajralmas qismi hisoblanadi, mamlakatni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga erishishda muhim mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Hozirgi kunda bizning mamlakatimizda ham bevosita soliqlar bo'yicha tushumlar davlat budgeti daromadlarini shakllantirishda muhim fiskal ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston iqtisodiyotini raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili sifatida tadbirkorlik subyektlari va investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, soliq solish jarayonlarini avtomatlashirgan holda soliq organlari tomonidan zamонавиy soliq xizmatlari ko'rsatilishini tashkil qilish maqsadida bir qancha qonun-hujjalari qabul qilindi. Shuningdek, yaqin yillar davomida mamlakatimizni ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda ularga teng raqobat sharoitini yaratish maqsadida izchil tarzda islohotlar amalga oshirilmoqda, bu, o'z navbatida, soliq yukini pasaytirish, soliq va bojxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish uchun yanada keng ko'lamli imkoniyatlarni yaratmoqda.

Mamlakatimizda soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini va bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, shu bilan birga, soliq va bojxona ma'muriyatchiligini takomillashtirish soliq siyosatining birinchi galdeg'i vazifalaridan hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, iqtisodiyotimizni jadallik bilan rivojlantirish hamda mamlakatimizning investisiyaviy jozibadorligini yaxshilashda eng muhim omillar bo'lib xizmat qiladi.

Aytib o'tishimiz mumkinki, soliq sohasida o'tgan yillar davomida olib borilgan islohotlar soliq yukini pasaytirish va soliq tizimini soddalashtirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va chet el investisiyalarini jalb qilish uchun qulay muhitni shakllantirish vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan yangi imkoniyatlarni yanada kengaytirdi.



Mamlakat budgetida bevosita soliqlar ulushining yuqoriligi – bu korxonalar va fuqarolarning daromadlari yuqoriligini ko'rsatishi, iqtisodiyotning rivojlanganligi va barqrarorligini anglatishi mumkin.

Fikrimizcha, tadbirkorlik subyektlariga kompleks xizmatlar ko'rsatishni, shuningdek, ular tomonidan soliq majburiyati ixтиyoriy bajarilishini ta'minlashga qaratilgan soliq ma'muriyatichiligi tizimini tashkil qilish, buning natijasida esa xufiyona iqtisodiyotni qisqartirish, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini qonuniylashtirish jarayonlarini rag'batlantirish har tomonloma maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shuningdek, O'zbekistonda soliq siyosatini takomillashtirish, soliq ma'muriyatichiligi samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan islohotlarni izchil tarzda davom ettirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mamlakatimizda bevosita soliqlar ma'muriyatichiliga oid bo'lgan munosabatlarni tartibga solish maqsadida bir qancha qonun-hujjatlari amaliyotga joriy etilgan. Mazkur qonun-hujjatlarda bevosita soliqlarga doir soliq ma'muriyatichiligi huquqiy jihatdan mustahkamlangan.

Bevosita soliqlarning to'lovchilari, soliq solish obyekti va bazasi, soliq stavkalari, soliq davri, soliq imtiyozlari, soliqni hisoblab chiqarish va soliq hisobotini taqdim etish tartibi hamda to'lash tartib-qoidalari ko'zda tutilgan [1].

Joriy yil 1-yanvardan Soliq kodeksining ayrim moddalariga kiritilgan o'zgartirish hamda qo'shimchalarga muvofiq bevosita soliq ma'muriyatichiligin ayrim qoidalari yanada takomillashtirildi. Jumladan, foyda soliq'i bo'yicha har oyning 15 sanasidan kechiktirmay to'lanadigan bo'nak to'lovlarini to'lashi lozim bo'lgan tadbirkorlik subyektlari daromadining chegaravni miqdori 5 milliard so'mdan

10 milliard so'mga oshirilishi belgilandi, o'zini o'zi band qilgan shaxslarning mehnat faoliyati natijasida yoki tovarlarni (xizmatlarni) realizasiya qilishdan olingan daromadi soliq davrida 100 million so'mdan oshgan kundan e'tiboran Soliq kodeksi maqsadida yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan tartibda soliqqa tortilishi va bunda o'zini o'zi band qilgan shaxslar ijtimoiy soliqni Soliq kodeksida belgilangan tartibda to'lashini nazarda tutuvchi o'zgartishlar kiritildi. Bundan tashqari, aylanmadan olinadigan soliqning qat'iy belgilangan summada to'lovchi soliq to'lovchilar uchun soliq belgilangan stavkalari jami daromadlari 500 million so'mdan oshmag'an soliq to'lovchilar uchun soliq stavkasi 20 mln. so'mdan 25 mln. so'mga, jami daromadlari 500 million so'mdan yuqori bo'lgan soliq to'lovchilar uchun soliq stavkasi 30 mln. so'mdan 34 mln. so'mga oshirildi. Shuningdek, soliqqa tortish maqsadida yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulklar bo'yicha jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk soliq'iga tortish bazasi yuridik shaxslardagi kabi 1 kv metri uchun belgilangan mutlaq qiymatdan past bo'lmaslik sharti belgilandi, shuningdek, mol-mulk va resurs soliqlarining joriy yil uchun stavkalarini indeksasiya qilindi [2].

Shu bilan bir qatorda, mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun soliq solish maqsadlarida belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalari ham indeksasiya qilindi [3].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida joriy yil

20-avgust kuni o'tkazilgan navbatdagi uchrashuvida tadbirkorlik uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish bo'yicha muhim yangi tashabbuslar bildirilib o'tildi. Jumladan, biznesni infratuzilma, er va energiya bilan ta'minlash, ichki bozorda teng raqobat muhitini yaratish, tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish hamda xizmatlar sohasiga yangi turki berish kabi bir qator yo'nalishlarda tashabbuslar ilgari surildi.

Buning natijasida esa 2025-yil 1-yanvardan 2028-yil 1-yanvarga qadar umumiy ovqatlanish korxonalariga foyda soliq'i stavkasi 50 foizga kamaytirilmoqda hamda qishloq xo'jaligidagi foydalilaniladigan yordamchi bino va inshootlar joylashgan er uchastkalariga nisbatan soliq solishni takomillashtirish bo'yicha qonun loyihasi ishlab chiqilishi ko'zda tutilmoqda [4].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada statistik ma'lumotlarni guruhlash, qiyoslash, solishtirma tahlil va boshqa uslublardan foydalanildi. Shuningdek, bevosita soliqlar ma'muriyatichilagini tashkil etish hamda yanada takomillashtirish bo'y-

1 Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 30 декабрдаги ЎРҚ-599 сонли Қонуни билан қабул қилинган Солиқ кодекси, (Қонун хужжатлари маълумотлари миллый базаси - <https://lex.uz/docs/4674902>);

2 Ўзбекистон Республикасининг 2023 йил 28 декабрдаги "Солиқ ва бюджет сиёсатининг 2024 йилга мўлжалланган асосий йўналишлари қабул қилинганини муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айrim қонун хужжатларига ўзgartiriш ва кўшимчалар киритиш тўғрисида"ги ЎРҚ-891-сонли Қонуни (Қонун хужжатлари маълумотлари миллый базаси - <https://lex.uz/docs/6718864>);

3 Ўзбекистон Республикасининг 2023 йил 25 декабрдаги "2024 йил учун Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети тўғрисида"ги ЎРҚ-886-сонли Қонуни (Қонун хужжатлари маълумотлари миллый базаси - <https://lex.uz/docs/6707765>);

4 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 30 avgustdagi "Ўзбекистон Республикаси Президентининг тадбиркорлар bilan tўrtinchi oqiq muloqotiда belgilangan vazifalarни amalga oshiriш чора-тадбирлари tўғrisida"ги ПФ-132-сон Фармони (Қонун хужжатлари маълумотлари миллый базаси - <https://lex.uz/docs/7089547>);



cha amaldagi qonunchilik normalari yuzasidan ayrim masalalar tahlil qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida 2023-yilda budgetga tushgan jami soliq tushumlari 165 918 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lib, shundan 72 705 mlrd. so'mi (43,8 %) bevosita soliqlar hissasiga to'g'ri kelgan. Bunda bevosita soliqlarning jami tushumidagi foyda solig'i ulushi 40 779 mlrd. so'mni (56,1 %), daromad solig'i ulushi 29 518 mlrd. so'mni (40,6 %) va aylanmadan olinadigan soliq ulushi 2 407 mlrd. so'mni (3,3 %) tashkil etgan.

Shuningdek, tushgan jami soliq tushumlari joriy yilning 1 choragida 40 328 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lib, shundan 18 036 mlrd. so'mi (44,7 %) bevosita soliqlar hissasiga to'g'ri kelgan. Bunda bevosita soliqlarning jami tushumidagi foyda solig'i ulushi 9 697 mlrd. so'mni (53,8 %), daromad solig'i ulushi 7 745 mlrd. so'mni (43,0 %) va aylanmadan olinadigan soliq ulushi 594 mlrd. so'mni (3,2 %) tashkil etgan. Mos ravishda tushgan jami soliq tushumlari joriy yilning 2-choragida 45 458 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lib, shundan 19 418 mlrd. so'mi (30,8 %) bevosita soliqlar hissasiga to'g'ri kelgan. Bunda bevosita soliqlarning jami tushumidagi foyda solig'i ulushi 9 474 mlrd. so'mni (48,8 %), daromad solig'i ulushi 9 188 mlrd. so'mni (47,3 %) va aylanmadan olinadigan soliq ulushi 756 mlrd. so'mni (3,9 %) tashkil etgan.

**1-jadval.** Bevosita soliqlar tushumlari haqida ma'lumot [5] mlrd.so'm.

Nomi	2023-yil (tushum)	2024-yil (prognoz)	2024-yil 1 chorak (tushum)	2024-yil 2 chorak (tushum)
<b>Budgetga tushumlar (jami)</b>	165 918 (100 %)	270 703,1 (100 %)	40 328 (100 %)	45 458 (100 %)
<b>Bevosita soliqlar</b>	72 705 (43,8 %)	85 610,9 (31,6 %)	18 036 (44,7 %)	19 418 (30,8 %)
<b>Foya solig'i</b>	40 779 (56,1 %)	44 282,7 (51,8 %)	9 697 (53,8 %)	9 474 (48,8 %)
<b>Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i</b>	29 518 (40,6 %)	38 477,0 (44,9 %)	7 745 (43,0 %)	9 188 (47,3 %)
<b>Aylanmadan olinadigan soliq</b>	2 407 (3,3 %)	2 851,1 (3,3 %)	594 (3,2 %)	756 (3,9 %)

Yuqorida jadval ma'lumotlaridan ko'rindaniki, O'zbekiston Respublikasida 2024-yilda budgetga tushishi kutilayotgan jami soliq tushumlari 200 703,1 mlrd. so'mni tashkil etishi rejalashtirilgan bo'lib, shundan 85 610,9 mlrd. so'mni (31,6 %) bevosita soliqlar tashkil qilishi prognoz qilingan. Bunda bevosita soliqlarning jami tushumidagi foyda solig'i ulushi 44 282,7 mlrd. so'mni (51,8 %), daromad solig'i ulushi 38 477,0 mlrd. so'mni (44,9 %) va aylanmadan olinadigan soliq ulushi 2 851,1 mlrd. so'mni (3,3 %) tashkil etishi rejalashtirilgan.

Shuningdek, 2023 yilda budgetga tushgan jami soliq tushumlarining 28 079 mlrd. so'mi (16,9 %) resurs soliqlari hissasiga to'g'ri kelgan. Shuningdek, tushgan jami resurs soliqlari tushumlari joriy yilning

1-choragida 40 328 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lib, shundan 8 072 mlrd. so'mi (20,0 %) resurs soliqlari hissasiga to'g'ri kelgan. Mos ravishda tushgan jami resurs soliqlari tushumlari joriy yilning 2-choragida 45 458 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lib, shundan 8 266 mlrd. so'mi (18,2 %) resurs soliqlari hissasiga to'g'ri kelgan.

5 Жадвал маълумотлари Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамаси хузуридаги Солик қўмитаси маълумотлари асосида тайёрланди.



**2-jadval.** Resurs soliqlari tushumlari haqida ma'lumot [6] mlrd.so'm.

Nomi	2023-yil (tushum)	2024-yil (prognoz)	2024-yil 1 chorak (tushum)	2024-yil 2 chorak (tushum)
<b>Budjetga tushumlar (jami)</b>	165 918 (100 %)	270 703,1 (100 %)	40 328 (100 %)	45 458 (100 %)
<b>Resurs soliqlari</b>	28 079 (16,9 %)	31 831,3 (27,3 %)	8 072 (20,0 %)	8 266 (18,2 %)
<b>Er solig'i</b>	6 890 (24,5 %)	7 171,1 (22,5 %)	1 853 (22,9 %)	2 169 (26,3 %)
<b>Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq</b>	15 300 (54,6 %)	16 684,2 (52,4 %)	4 261 (52,8 %)	4 104 (49,6 %)
<b>Mol-mulk solig'i</b>	5 098 (18,1 %)	6 715,0 (21,1 %)	1 718 (21,3 %)	1 807 (21,9 %)
<b>Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq</b>	791 (2,8 %)	1 261,1 (4,0 %)	240 (3,0 %)	186 (2,2 %)

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rindiki, O'zbekiston Respublikasida 2024-yilda budjetga tushishi kutilayotgan jami soliq tushumlari 200 703,1 mlrd. so'mni tashkil etishi rejalashtirilgan bo'lib, shundan 31 831,3 mlrd. so'mni (27,3 %) resurs soliqlari tashkil qilishi prognoz qilingan.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, bevosita soliqlar tushumlarining davlat budjetida salmoqli hissasi mavjud bo'lib, u budjet daromadlarining muhim fiskal asosi hisoblanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tegishli qonun-hujjatlari o'rganilganda 2024-yildan boshlab o'zini o'zi band qilgan shaxslarning mehnat faoliyati natijasida yoki tovarlarni (xizmatlarni) realizasiya qilishdan olingan daromadi soliq davrida

100 million so'mdan oshgan kundan e'tiboran Soliq kodeksi maqsadida yakka tartibdagи tadbirkorlar uchun belgilangan tartibda soliqqa tortish amaliyoti joriy etilganligi ma'lum bo'ldi. Mazkur tartib yakka tartibdagи tadbirkor va o'z-o'zini band qilgan shaxslar uchun soliq solishda teng sharoitlar yaratish maqsadida kiritilgan degan xulosaga kelindi.

Shuningdek, o'rganishlar davomida soliqqa tortish maqsadida yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulklar bo'yicha jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'iga tortish bazasi yuridik shaxslardagi kabi 1 kv. metri uchun belgilangan mutlaq qiymatdan past bo'lmaslik sharti belgilanganligi ma'lum bo'ldi. Mazkur tartibning joriy etilishi natijasida yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlarini soliqqa tortishda, ularni jismoniy yoki yuridik shaxsga tegishli bo'lishidan qat'i nazar teng sharoitlar yaratilishiga hamda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni 1 kv. metr ko'chmas mulkning minimal qiymatidan kelib chiqib to'lash joriy etilishi bilan amalda yuridik shaxslar tomonidan kamroq soliq to'lash maqsadida jismoniy shaxslarga ko'chmas mulkni qayta ro'yxatdan o'tkazish holatlari oldi olinishi kabi ijobji natijalarga olib kelgan.

Resurs soliqlari bo'yicha stavkalarning indeksasiya qilinishi esa, o'z navbatida, mahalliy budgetlar daromad bazasini oshirish va budgetning umumiylarida ushbu soliqlarning ulushini saqlab qolish maqsadida belgilanganligi ma'lum bo'ldi.

Yuqorida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida joriy yil

20-avgust kuni o'tkazilgan navbatdagи uchrashuvida tadbirkorlik uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish bo'yicha muhim yangi tashabbuslar bildirilib o'tilganligini, jumladan, biznesni infratuzilma, er va energiya bilan ta'minlash, ichki bozorda teng raqobat muhitini yaratish, tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish hamda xizmatlar sohasiga yangi turkti berish kabi bir qator yo'naliishlarda tashabbuslar ilgari surilganligini aytib o'tgan edik. Bizningcha, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan to'rtinchи ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari doirasida tegishli qonun-hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish va qabul qilgan holda amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir. Xususan, qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yordamchi bino va inshootlar joylashgan er uchastkalariga nisbatan soliq solishni takomillashtirish

6 Жадвал маълумотлари Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Солик қўмитаси маълумотлари асосида тайёрланди.



maqsadida qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yordamchi bino va inshootlar joylashgan er uchastkalariga nisbatan er uchastkalari va kapital qurilish obyektlaridan ruxsat etilgan foydalanish turlari klassifikatori asosida tabaqlashtirilgan soliq solish tartibini tatbiq etish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida olib borilgan o'rganishlar va tahlillar natijasida bevosita soliqlarni hisobga olish hamda soliq ma'muriyatchiligi tizimining ayrim jihatlarini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq degan xulosaga kelindi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi o'rganilganda bevosita soliqlar bo'yicha ko'zda utilgan ayrim imtiyozlar va boshqa soliq ma'muriyatchiligini tartibga solishga oid ayrim qoidalarni takomillashtirishga qaratilgan, amaldagi qonunchilik normalariga zarur o'zgartirish hamda qo'shimchalarni kiritish maqsadga muvofiq, degan xulosaga kelindi.

Bizningcha, bevosita soliqlar bo'yicha soliq ma'muriyatchiligining yanada takomillashtirilishi tadbirkorlik subyektlari va jamiyat manfaatlariga birdek xizmat qilishi bilan muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati**

1. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 30 декабрдаги ЎРҚ-599 сонли Қонуни билан қабул қилинган Солик кодекси, (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси - <https://lex.uz/docs/4674902>);
2. Ўзбекистон Республикасининг 2023 йил 28 декабрдаги "Солик ва бюджет сиёсатининг 2024 йилга мўлжалланган асосий йўналишлари қабул қилинганини муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айrim қонун ҳужжатларига ўзгартириш ва кўшимчалар киритиш тўғрисида"ги ЎРҚ-891-сонли Қонуни (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси - <https://lex.uz/docs/6718864>);
3. Ўзбекистон Республикасининг 2023 йил 25 декабрдаги "2024 йил учун Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети тўғрисида"ги ЎРҚ-886-сонли Қонуни (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси - <https://lex.uz/docs/6707765>);
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 30 августдаги "Ўзбекистон Республикаси Президентининг тадбиркорлар билан тўртинчи очик мулоқотида белгилangan вазифаларни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-132-сон Фармони (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси - <https://lex.uz/docs/7089547>);
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Солик кўмитасининг расмий сайти (<https://soliq.uz>).

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 9**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №5666955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

